



KUNCHIQAR IZLANISHLARI: O'ZGARISHLAR DAVRI GLOBAL MUAMMOLARI YECHIMIDA YAPONSHUNOSLIKDAGI NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR

16-XALQARO ILMIY
ANJUMAN
ILMIY TO'PLAMI



日本研究：変革期の日本研究における
グローバル課題解決への
理論的・実践的アプローチ

主催 タシケント国立東洋学大学
筑波大学人文社会系

QR

17-MART | TOSHKENT – 2025

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



“KUNCHIQAR IZLANISHLARI: O‘ZGARISHLAR DAVRI
GLOBAL MUAMMOLARI YECHIMIDA
YAPONSHUNOSLIKDAGI NAZARIY VA AMALIY
YONDASHUVLAR”

16-XALQARO ILMIY ANJUMAN
ILMIY TO‘PLAMI

文明のクロスロード 16
国際会議

日本研究:変革期の日本研究におけるグローバル課題解決への
理論的・実践的アプローチ

論文集

主催 タシケント国立東洋学大学

筑波大学人文社会系

17-MART
TOSHKENT – 2025

TARJIMANING MANBASINI ANIQLASHDAGI MASALALAR (Yulduzli tunlar romanining yapon tiliga tarjimasi misolida)

Umidbek SAIDOV
TDSHU doktoranti

Annotatsiya. Maqolada badiiy tarjima manbasining noaniqligi masalasi yoritilgan. Tarjima tahlili uchun asliyat matni zarur ekanligi barchamizga ma'lum. Odatda, asliyat matni haqida ma'lumotlar tarjimada aniq berilgan bo'ladi. Ammo, "Yulduzli tunlar" romanining yaponcha tarjimasi misolida bunday mantiq doim ham ish bermasligi ma'lum bo'ldi. Ya'ni tarjimada asliyat matni haqida hech qanday ma'lumotlar berilmagan. Agar tarjima manbasi aniq bo'lmasa tadqiqotchi hal qilishi kerak bo'lgan bir necha masalalar yuzaga keladi:

- a) Tarjima bilvositami yoki bevosita?
- b) Tarjima uchun qaysi til asos qilib olingan?
- c) Tarjima uchun nechanchi yilgi nashr asos qilib olingan?

Tarjima amaliyotida uchrashi mumkin bo'lgan bu masalani hal qilish va tarjima manbasi haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lish uchun "sarlavhalarining qiyosiy tahlil" metodidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lishi aniqlandi. Bunday tahlil metodi tarjima manbasini aniqlashdan tashqari, tarjima qanday tamoyillar asosida amalga oshirilgani haqida tasavvur shakillantirish uchun ham xizmat qilishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: sarlavhalar qiyosiy tahlili, bilvosita tarjima, bevosita tarjima, Okkam ustarasi, inglizcha tarjima, ruscha tarjima.

Аннотация. В статье рассматривается проблема неопределённости исходного текста художественного перевода. Известно, что для сравнительного анализа перевода необходимо иметь в наличии исходный текст. Обычно информация об исходном тексте указывается в самом переводе. Однако на примере японского перевода романа «Звёздные ночи» выяснилось, что эта логика работает не всегда. В ситуации, когда исходный текст перевода не ясен, перед исследователем встают несколько вопросов, которые должны быть решены:

- а) Перевод прямой или опосредованный?
- б) Какой язык был взят за основу при переводе?
- в) Какого года издания исходного текста использовалось для перевода?

Для решения вышеуказанных вопросов, которые могут возникнуть в практике перевода, и получения точной информации об источнике перевода был определён наиболее целесообразный метод – сравнительный анализ заголовков. Этот метод не только помогает определить источник, но и даёт представление о принципах, на основе которых был выполнен перевод.

Ключевые слова: сравнительный анализ заголовков, опосредованный перевод, прямой перевод, бритва Оккама, английский перевод, русский перевод.

Annotation. The article examines the issue of uncertainty regarding the original text of a literary translation. It is known that for a comparative analysis of a translation, the original text must be available. Typically, information about the original text is indicated in the translation itself. However, based on the example of the Japanese translation of the novel *Starry Nights*, it was discovered that this logic does not always

apply. When the original text of the translation is unclear, several questions arise that must be addressed:

- a) Is the translation direct or mediated?
- b) Which language was used as the basis for the translation?
- c) Which edition (year) of the original text was used for the translation?

To resolve these issues, which may arise in translation practice, and to obtain accurate information about the source of the translation, the most appropriate method was identified – a comparative analysis of titles. This method not only helps determine the source but also provides insight into the principles on which the translation was based.

Key words: comparative analysis of titles, mediated translation, direct translation, Occam's razor, english translation, russian translation.

Pirimqul Qodirovning 2 qismli “Yulduzli tunlar” romani ilk bor 1979 – yilda nashr etilgan va hozirga qadar dunyoning ko‘p tillariga; fransuz, ingliz, rus, qirg‘iz, qoraqalpoq, qozoq, urdu, turkman, turk, hind, bengal tillariga o‘g‘irilgan³⁷. 2022 – yilda Yamaguchi Hisako (山口・久子) qalami ostida yapon tiliga ham o‘girildi. Tabiiyki, tarjimashunos sifatida ushbu asar e’tiborimizni tortdi va yapon tilidagi tarjima bilan tanishish jarayonida bir masala yuzaga keldi. Roman qaysi tildan o‘g‘irilganligi haqida tarjimada hech qanday ma’lumotlar berilmagan. O‘zbek tilida yozilgan roman o‘zbekchadan o‘girilishi mantiqan to‘g‘ridek tuyulsada bevosita tarjima bilan bir qatorda bilvosita tarjimalar ham ko‘p uchraydi. Ayniqsa dunyoning o‘ndan ortiq tillariga o‘girilgan asar bo‘lsa bilvosita tarjima bo‘lish ehtimoli oshadi. Shu sabab, bizga mantiqiy to‘g‘ridek tuyilgan javob emas, aniq javob kerak bo‘ldi. Aniq javob uchun tarajimon bilan aloqa o‘rnatishga harakat qilindi, ammo samara bermadi.

Mantiqqa suyanib, roman o‘zbek tilidan o‘girilgan hisoblaganda ham “roman nechanchi yilgi nashrdan o‘girilgan?” degan boshqa bir masala paydo bo‘ladi.


“Yulduzli tunlar” romani so‘nggi 40 yil ichida ko‘p marotaba qayta nashrdan chiqqan. Ularni “1 – davr nashrlar” va “2 – davr nashrlar” deb, ikki guruhga ajratish mumkin.

1 – davr: 1999 – yilgacha bo‘lgan nashrlar; 1979 [1], 1981 [2], 1985 [3], 1988 [4], 1990 [5] yillarni o‘z ichiga oladi. 1 – davrdagi nashrlarda bo‘limlarning umumiy soni 16 ta; 1 – qismda 9 ta bo‘lim va 2 – qismda 7 ta bo‘lim.

2 – davr: 1999 yildan keyingi nashrlar; 1999 [6], 2004 [7], 2013 [8], 2015 [9], 2019 [10] yillarni o‘z ichiga oladi. 2 – davrdagi nashrlarda bo‘limlarning umumiy soni 20 ta, 4taga ko‘paygan; 1 – qismda 11 ta bo‘lim, 2 – qismda 9 ta bo‘lim. 1999 – yildan keyingi nashrlarda bo‘limlar soni 4taga ko‘paygani uchun “to‘ldirilgan nashr” deb chop etila boshlagan.

1 – jadval

³⁷ https://uz.wikipedia.org/wiki/Yulduzli_tunlar, 2024.02.01, 15:30da qaraldi.



1999 – yilgacha va 1999 – yildan keyingi Yulduzli tunlar romanidagi bo‘limlar soni o‘zgarishi

Demak, roman o‘zbek tilida ko‘p marotaba qayta nashr etilgan. Bu esa yapon tilidagi tarjima manbasi bilan bog‘liq 3ta masalaga ishora qiladi:

- a) roman bevosita yoki bilvosita tarjimaligini bilmaymiz,
- b) roman bilvosita tarjima bo‘lganda ham, qaysi tildan ekanligini bilmaymiz,
- d) roman bevosita bo‘lsa, nechanchi yilgi nashr asos qilib olinganini bilmaymiz.

Aniq javob bo‘lmasa tahminlar ham fikrlar ham ko‘pyib boraveradi. Tarjima o‘zbek tilidan ekanligiga ma’lum bir darajada mantiqiy asoslarimiz bo‘lsada, bu asoslar shubhasiz deyish uchun yetarlik emas. Shubhalardan holi bo‘lish va tarjima manbasi haqida aniq ma’lumotga ega bo‘lish uchun bu masalani atroflicha o‘rganib chiqish kerak bo‘ladi. Maqsadga yetish uchun quyidagi masalalarni hal qilish kerak:

1. Yapon tiliga qaysi tildan o‘girilganligini aniqlash.
2. Agar tarjima bevosita ekanligi tasdiqini topsa, nechanchi yilgi nashrdan o‘girilganligini aniqlash.

Avval tarjima bilvosita degan nuqtai nazarni tahlil qilib chiqsak.

Birinchidan, tarjima bilvosita deb hisoblash uchun asos bu tarjima o‘zbek tilidan ekanligini tasdiqlaydigan ma’lumot yo‘qligida.

Ikkinchidan, tarjimonning o‘zbek tilini bilish qobilayti bilan bog‘liq shubhalar ham bunday tahminning foydasiga ishlaydi. Sababi, tarjimada tarjimon haqida hech qanday biografik ma’lumotlar berilmagan.

Tarjima bilvosita deb fikrlagan taqdirda ham, qaysi tildan o‘girilganligini qanday bilsa bo‘ladi? Buning uchun qiyosiy tahlilga murojaat qilamiz. Qiyosiy tahlil obyekti sifatida sarlavhalar olinadi. Bunday tahlil asliyat va tarjima asarlari o‘rtasidagi indentiklik darajasini aniqlashga yordam beradi.

“Yulduzli tunlar” tarjima qilingan tillar ko‘pligi sabab, tahlil uchun Okkam ustarasi uslubidan foydalanamiz. Roman o‘g‘irilgan 11ta tilning ichidan ingliz va rus tillarini e‘htimoliy bilvosita tarjimaning manbasi sifatida tanlab olamiz. Boshqa tillarni e‘tibordan chetda qoldirishdan asosiy maqsad, tadqiqot sifatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir o‘tkazmaydigan tahminlarni jalb etmaslik.

Avval, rus va yapon so‘ng ingliz va yapon tillaridagi tarjima asar sarlavhalarining qiyosiy tahlilga beriladi. Bunday tahlil, tarjima bilvosita degan tahmin nechog‘liq asosli ekanini tekshirish imkonini beradi. Agar rus va yapon tilidagi sarlavhalarining indentiklik darajasi yuqori ekanligi o‘rnatilsa, demak tarjima rus tilidan bo‘lgan bo‘ladi. Agar sarlavhalardagi indentiklik ingliz va yapon tillarida yuqori bo‘lsa, demak ingliz tarjima ingliz tilidan bo‘lgan bo‘ladi. Agar ikkala tilda ham indentiklik past bo‘lsa, demak tarjima bilvosita degan tahmin o‘zini oqlamagan bo‘ladi.

Tahlilni rus va yapon tillaridagi sarlavhalar qiyosidan boshlaymiz.

“Yulduzli tunlar” romani rus tiliga bir marotaba, 1984 – yilda Yuriy Surovtsev tomonidan o‘g‘irilgan. Rus tilidagi tarjimaning tarkibiga ko‘ra, roman 2 qismdan iborat: 1 – qismda 10ta bo‘lim, 2 – qismda 7ta bo‘lim mavjud.

Yapon tilidagi tarjima ham 2 – qismdan iborat, lekin, 1 – qismda 9ta bo‘lim, 2 – qismda 8ta bo‘lim, ya’ni 2ta bo‘lim farq bor. Biroq, bu hali rus tilidagi tarjimani manba sifatida ko‘rib bo‘lmaydi deyishga yetarlikcha asos emas.

Endi qism sarlavhalarini qiyoslab ko‘rsak, rus tilidagi tarjimada 1 – qism “Часть первая. Родник под обвалом” (s.s.t.: qism birinchi, ko‘chki ostidagi buloq), 2 – qism “Часть вторая. Преврастности судьбы” (s.s.t.: qism ikkinchi, taqdir o‘zgarishlari) deb nomlangan.

Yapon tilidagi tarjimada 1 – qism “第一部「迷走」” [day ichibu meysou] (s.s.t.: birinchi qism, ikkilanib yugurish), 2 – qism “第二部「天の響き」” [day ni bu tenno‘ hibiki] (s.s.t.: ikkinchi qism, ko‘kning aksadosi) deb nomlangan. Ko‘rib turganimizdek, rus va yapon tillaridagi 2 qism sarlavhalarida indentiklik kuzatilmadi. Bu esa, tarjima rus tilidan emasligiga birinchi dalil.

Keyingisi bo‘lim sarlavhalarining qiyosiy tahliliga. Rus tilida faqat toponimlar bilan berilgan. 2 – qismdagi bo‘lim sarlavhalarida ham o‘xshash holatni kuzatish mumkin. Lekin 4 – bo‘limda, nimagadir, shunchaki toponim emas, balkim bo‘limga berilgan nomi ham ko‘rishimiz mumkin. Rus tarjimoni nima uchun aynan 2 – qismdagi 4 – bo‘limga berilgan nomi saqlab qolishga qaror qilgani no‘malum. Rus tilidagi sarlavhalardan farqli, yapon tilidagi sarlavhalarda faqat toponimlar emas, bo‘limlarga berilgan nomlar ham mavjud. Quyida rus va yapon tilidagi qism va bo‘lim sarlavhalarining o‘zbek tilidagi so‘zma-so‘z tarjimasi jadval shaklda berilgan.

2 – jadval

Ruschada	Yaponchada
1 – qism: Ko‘chki ostidagi buloq	1 – qism: Arosat
1 – bo‘lim: Quva	1 – bo‘lim: Quva. Tahlika qil
2 – bo‘lim: Axsi	2 – bo‘lim: Axsi. Ajalga surtadigan malham yo‘q

3 – bo‘lim: Andijon	3 – bo‘lim: Andijon. Gul va quyun
4 – bo‘lim: Quva	4 – bo‘lim: Quva. Jasoratga nisbatan mukofot
5 – bo‘lim: O‘sh	5 – bo‘lim: O‘sh. Najot qayerda?
6 – bo‘lim: Samarqand	6 – bo‘lim: Samarqand. Zafar va kulfat
7 – bo‘lim: Andijon	7 – bo‘lim: Andijon. Singan orzu (lar)
8 – bo‘lim: Samarqand	8 – bo‘lim: Samarqand. Taqdirni hal qiluvchi olishuv
9 – bo‘lim: Yana Samarqandda	9 – bo‘lim: Toshkent, O‘ratepa, Isfara. Ko‘chkida to‘lgan buloq
10 – bo‘lim: Toshkent, O‘ra-tepa, Isfara	
2 – qism: Taqdir o‘zgarishlari	1 – qism: Ko‘kning akssadosi
1 – bo‘lim: Hirot, Merv	1 – bo‘lim: Hirot. Ichib quritilgan inson hayoti qadahi
2 – bo‘lim: Qunduz va yana Samarqandga	2 – bo‘lim: Qunduz. Ikki qilich orasida
3 – bo‘lim: Qobul	3 – bo‘lim: Samarqand. Toshgan daryo o‘zan izlaydi
4 – bo‘lim: Laxo‘r, Panipat, Dehli. Yangi qirg‘oqlar	4 – bo‘lim: Laxo‘r, Panipat, Dehli. Yangi qirg‘oqlar
5 – bo‘lim: Agra	5 – bo‘lim: Agra. Taqdirga ergashib
6 – bo‘lim: Sekri	6 – bo‘lim: Sekiri. Qayta ko‘z ochgan buloq
7 – bo‘lim: Va yana Agra	7 – bo‘lim: Agra. Yulduz(lar) girdobi

Rus va yapon tarjimalaridagi bo‘lim sarlavhalarining qiyosiy tahlili ulardagi indentiklik faqat toponimlarda mavjud ekanligini ko‘rsatdi. Bu esa tarjima rus tilidan qilinmaganligiga ikkinchi dalil.

Rus va yapon tarjimalarning qiyosiy tahlilida yana bir ko‘zga yaqqol tashlanadigan farq 1 – sahifada uchraydi. Rus tilidagi tarjimada voqealar Hijriy 899 – yildan boshlanadi. Yapon tilidagi tarjimada esa voqealar 1494 – yildan, ya’ni Grigoryan taqvimi asosida berilgan. Bu esa, yapon tilidagi tarjima rus tilidan o‘girmaganligiga uchinchi dalil.

Rus va yapon tillaridagi tarjimalarning qiyosiy tahlili haqida xulosa qiladigan bo‘lsak, tarjima rus tilidan emasligiga 3ta dalil keltirish mumkinligi ma’lum bo‘ldi:

- birinchidan, ikki qismdagi sarlavhalarining mos kelmasligi,
- ikkinchidan, bo‘limlardagi sarlavhalarining mos kelmasligi,
- uchinchidan, 1 – sahifadagi yil sanasining berilishi mos kelmasligi.

Tarjima rus tilidan bo‘lmasa, unda ingliz tilidan bo‘lishi mumkin degan tahmin qoladi.

Yulduzli tunlar romanining ingliz tilidagi tarjimasi I.M. To‘xtasinov, U.R. Yo‘ldoshev, A.A. Hamidovlar qalami ostida 2019 – yilda nashr etildi. Ingliz tilidagi

tarjima ham ikki qismdan iborat: 1 – qimsda 10ta bo‘lim, 2 – qismda 7ta bo‘lim. Bu jihati bilan yapon tilidagi tarjimadan ko‘ra, rus tilidagi tarjimaga yaqin ekanligi e‘tiborli.

1 – qism “Part one. The spring under the landslip” (s.s.t.: qism birinchi. ko‘chki ostidagi buloq) deb berilgan. Bunday sarlavha yapon tilidagi sarlavhadan ko‘ra, rus tilidagi sarlavhaga mos. O‘zbek tilidagi barcha nashrlarda romanning birinchi qismi “Arosat” deb nomlangan. Ammo, ingliz tilidagi sarlavha aynan rus tilidagi sarlavhaga mos kelishi, rus tilidagi tarjima ingliz tili uchun asos qilib olingan degan ehtimoli yuzaga keltiradi.

2 – qism “Part two. Vicissitudes of fate” (s.s.t.: qism ikkinchi. Taqdir o‘zgarishlari) deb nomlangan. 2 – qism sarlavhasida ham huddi 1 – qismdagi kabi, yapon tilidagi sarlavhadan ko‘ra, rus tilidagi sarlavhaga mosligi yuqori. Yana bir qiziq jihati esa, huddi rus tilidagi tarjimadagidek ingliz tilidagi tarjimada ham voqealar Hijriy 899 – yildan boshlanadi. Bunday yil taqvimini o‘zbek tilidagi matnda ham, yapon tilidagi matnda uchramaydi. Ingliz va rus tillaridagi sarlavhalardagi va taqvimlardagi bunday o‘xshashliklar roman ingliz tiliga ruschadan bilvosita o‘girilgan deyish uchun asos bo‘la oladi.

Bo‘lim sarlavhalarining qiyosiy tahlili esa, quyidagi natijalarni ko‘rsatdi:

1 – qismdagi ingliz va yapon tilidagi 1, 4, 5 – bo‘lim sarlavhalarida moslik mavjud. Ammo, 2, 3, 8 – bo‘lim sarlavhalarida moslik yo‘q. 6, 7, 9, 10 – bo‘lim sarlavhalarida rus tiliga moslik aniqlandi.

2 – qismdagi 1 – bo‘lim sarlavhasi o‘zbek tilidagi 2 – davr nashr sarlavhasiga mos. 2 – bo‘lim sarlavhasi esa o‘zbek tilidagi 1 – davr nashr sarlavhasiga mos. 3 – bo‘lim sarlavhasi ham yapon tilidagi, ham o‘zbek tili 1 – davr nashr sarlavhasiga mos. 4 – bo‘lim sarlavhasi rus tilidagi sarlavhaga mos. 5 – bo‘lim sarlavhasi yapon o‘zbek tili 2 – davr nashr sarlavhasiga mos. 7 – bo‘lim sarlavhasi ham yapon tilidagi, ham rus tilidagi sarlavhaga mos.

3 – jadval

Inglizchada	Yaponchada
1 – qism: Ko‘chki ostidagi buloq	1 – qism: Arosatda qolish
1 – bo‘lim: Quva. Xavf arafasidagi taqdir	1 – bo‘lim: Quva. Tahlika qil
2 – bo‘lim: Axsi. O‘lim haq	2 – bo‘lim: Axsi. Ajalga surtidigan malham yo‘q
3 – bo‘lim: Andijon. Gul va quyun	3 – bo‘lim: Andijon. Gul va quyun
4 – bo‘lim: Quva. Jasoratning jazosi	4 – bo‘lim: Quva. Jasoratga nisbatan mukofot
5 – bo‘lim: O‘sh. (xatardan) chiqish yo‘lini izlab	5 – bo‘lim: O‘sh. Najot qayerda?
6 – bo‘lim: Samarqand	6 – bo‘lim: Samarqand. Zafar va kulfat
7 – bo‘lim: Andijon, Xo‘jand. Ro‘yob bo‘lmagan orzular	7 – bo‘lim: Andijon. Singan orzu (lar)
8 – bo‘lim: Samarqand. So‘ngi olishuv	8 – bo‘lim: Samarqand. Taqdirni hal

	qiluvchi olishuv
9 – bo‘lim: Yana Samarqandda	9 – bo‘lim: Toshkent, O‘ratepa, Isfara. Ko‘chkida to‘lgan buloq
10 – bo‘lim: Toshkent, O‘ra-tepa, Isfara. Ko‘chki ostidagi buloq	
2 – qism: Taqdir o‘zgarishlari	1 – qism: Ko‘kning akssadosi
1 – bo‘lim: Hirot, Merv. Dovuldan oldingi osudalik	1 – bo‘lim: Hirot. Ichib quritilgan inson hayoti qadahi
2 – bo‘lim: Qunduz, Samarqand. Ikki qilich orasida	2 – bo‘lim: Qunduz. Ikki qilich orasida
3 – bo‘lim: Qobul. Toshgan daryo yangi o‘zan izlaydi	3 – bo‘lim: Samarqand. Toshgan daryo o‘zan izlaydi
4 – bo‘lim: Yangi qirg‘oqlar. Laxo‘r, Panipat, Dehli.	4 – bo‘lim: Laxo‘r, Panipat, Dehli. Yangi qirg‘oqlar
5 – bo‘lim: Agra. Bo‘lish yoki bo‘lmaslik	5 – bo‘lim: Agra. Taqdirga ergashib
6 – bo‘lim: Sekri. Qayta paydo bo‘lgan umid	6 – bo‘lim: Sekiri. Qayta ko‘z ochgan buloq
7 – bo‘lim: Va yana Agra. Yulduzlar girdobi	7 – bo‘lim: Agra. Yulduz(lar) girdobi

Yuqoridagi tahlil natijasida roman yaponchaga ingliz tilidan o‘girmagan deb xulosa qilish mumkin. Buning uchun quyidagi sabablar mavjud:

1. Romanning tarkibiy qismidagi nomutanosiblik,
2. Qism sarlavhalaridagi indentiklikning yo‘qligi,
3. Bo‘lim sarlavhalaridagi indentiklikning yo‘qligi,
4. Romanning birinchi betida berilgan yil taqvimidagi farq.

Va yana qo‘shimcha sifatida, ingliz tilidagi tarjima 2019 – yildagina nashrdan chiqqan, ya’ni yapon tilidagi tarjima nashridan 3 yil oldin. Yulduzli tunlardek katta, tarixiy realiyalarga to‘yintirilgan romanni uch yilda tarjima qilib uni nashr ettrish bir kishining qo‘lidan kelishi umuman ilojisiz ekanini hisobga oladigan bo‘lsak ingliz tilidan tarjima qilingan degan tahmin o‘zini oqlamasligi ravshavlashadi. Ammo, ingliz tilidagi tarjimaning o‘zi gibrid tarajima³⁸ bo‘lishi mumkinligini alohida tadqiqotga muhtoj. Sababi, ingliz tilidagi tarjimada bir vaqtning o‘zida ham o‘zbek tili va rus tili elementlari aniqlandi. Bu esa tarjima ham bevosita va bilvosita asosga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bu esa tarjima amaliyotida yangi hodisa sifatida o‘rganish mumkin bo‘lgan hodisa.

Agar tarjima bilvosita bo‘lmasa, unda bevosita bo‘lishi kerak. Lekin, tarjima o‘zbekchadan deb tahmin qilgan taqdirda ham qaysi davrdagi nashr asos qilib olingan?

³⁸ Gibrid tarjima – bir vaqtning o‘zida ham bevosita ham bilvosita elementlardan tashkil topgan tarjima turi.

Tarjima yapon tiliga aynan 1 – davr nashridan, aniqrog‘i 1979 – yilgi nashrdan amalga oshirilganligiga 2ta kuchli dalil bor.

Birinchi, 1979 – yilgi nashrda bo‘limlarning umumiy soni 16ta: 1 – qismda 9ta bo‘lim va 2 – qismda 7ta bo‘lim. Yapon tilidagi tarjimada ham, bo‘limlar soni 16ta: 1 – qismda 9ta va 2 – qismda 7ta.

Ikkinchi, 1979 – yilgi nashrda ham va yapon tilidagi tarjimada ham 9 – bo‘limda “Isfara” toponimi mavjud.

Yapon tiliga tarjima 1979 – yilgi nashrdan amalga oshirilgan degan tahminni tasdiqlash uchun, yana qism va bo‘limlar qiyosiy tahliliga murojaat qilamiz. Tahlilni esa, qism sarlavhalaridan boshlaymiz.

1 – qism o‘zbekchada “Arosat”, yaponchada 「迷走」 [meysou] (s.s.t.:ikkilanib yugurish) deb nomlanadi. Semantik indentiklik yaqqol ko‘zga tashlanib turibdi.

2 – qism o‘zbekchada “Falakning gardishi”, yaponchada 「天の響き」 [tenno‘ hibiki] (s.s.t.: ko‘kning aksadosi) deb nomlanadi. Ikki sarlavhada qisman leksik va to‘liq semantik indentiklikni kuzatish mumkin. Leksik indentiklik ikkala sarlavhada ham “osmon” so‘zi mavjudligi bilan ifodalansa, semantik indentiklik esa “barchasi qaytadi” degan ma‘noni anglatuvchi ibora ishlatilganni bilan izohlanadi. Qism sarlavhalarining tahlili o‘zbek va yapon tilidagi sarlavhalarda indentiklik yuqori ekanligini ko‘rsatib berdi. Bu esa, yapon tiliga tarjima uchun manba sifatida o‘zbek tilida yozilgan 1979 yildagi nashr asos qilib olganligiga dalil bo‘la oladi.

Endi esa, bo‘lim sarlavhalarining tahliliga o‘tamiz. Birinchi bo‘lib bo‘lim sarlavhalaridagi toponimlar qiyoslanadi.

2 – jadval

O‘zbekchada	Yaponchada
1 – qism	1 - qism
1 – bo‘lim: Quva	1 – bo‘lim:クバー [kubaa]
2 – bo‘lim: Axsi	2 – bo‘lim:アフシ [afushi]
3 – bo‘lim: Andijon	3 – bo‘lim:アンディジャン [andijyan]
4 – bo‘lim: Quva	4 – bo‘lim:クバー [kubaa]
5 – bo‘lim: O‘sh	5 – bo‘lim:オシュ [o‘shyu]
6 – bo‘lim: Samarqand	6 – bo‘lim:サマルカンド [samarukando‘]
7 – bo‘lim: Andijon	7 – bo‘lim:アンディジャン [andijyan]
8 – bo‘lim: Samarqand	8 – bo‘lim:サマルカンド [samarukando‘]
9 – bo‘lim: Toshkent, O‘ratepa, Isfara	9 – bo‘lim: タシュケント [tashyukento‘], オラアテパー [o‘ratepaa], イスファラー [isufaraa]
2 – qism	2 – qism
1 – bo‘lim: Hirot	1 – bo‘lim: ヘラート [hera-to‘]
2 – bo‘lim: Qunduz, Samarqand	2 – bo‘lim:

	クンドゥズ [kunduzu], サマルカンド [samarukando']
3 – bo‘lim: Qobul	3 – bo‘lim: カブール [kabuuru]
4 – bo‘lim: Laxo‘r, Panipat, Dehli	4 – bo‘lim: ラーホール [raaho‘ru], パーニーパット [panipatto], デフリ [defuri]
5 – bo‘lim: Agra	5 – bo‘lim: アーグラ [aagura]
6 – bo‘lim: Sekri	6 – bo‘lim: セクリ [sekuri]
7 – bo‘lim: Agra	7 – bo‘lim: アーグラ [aagura]

2 – jadvaldan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek va yapon tilidagi sarlavhalarda berilgan toponimlar mutlaqo mos. Bu esa, o‘zbek va yapon tilidagi manbalardagi indentiklikka ishora qiladi. Lekin, adolat o‘rnida aytish kerakki, toponimlardagi moslik rus va yapon tilidagi manbalarda ham kuzatilgan edi. Shu sababdan, o‘zbek va yapon tilidagi toponimlar mosligini yana bir dalil sifatida hisobga olib qo‘yamizda, tahlilda davom etmaiz.

Endi navbat bo‘limlardagi sarlavhalarga berilgan nomlarning qiyosiy tahliliga.

1 – bo‘lim o‘zbekchada “Quva. Qil ustida turgan taqdirilar”, yaponchada 「クバー 危機一髪」 [kubaa kiki ippatsu] (s.s.t.: Quva, tahlika qil) deb berilgan. O‘zbekchada ham yaponchada ham sarlavha nomi xavf-xatarni ifodalovchi ibora orqali berilgan va ikkala tilda ham “soch tolasi” degan leksema ishlatilgan. Bu esa ulardagi indentiklikka ishora qiladi.

2 – bo‘lim o‘zbekchada “Ajalg davoyo‘q”, yaponchada 「死につける薬はない」 [shi ni tsukeru yaku wa nay] (s.s.t.: ajalga surtadigan malham yo‘q) deb berilgan. Ikkala sarlavhada ham ham leksik ham semantik identiklik mavjud.

3 – bo‘lim, o‘zbekchada “Gul va quyun”, yaponchada ham so‘zma – so‘z 「花と竜巻」 [hana to‘ tatsumaki] deb berilgan. To‘liq indentiklik mavjud.

4 – bo‘lim, o‘zbekchada “Jasoratning jazosi”, yaponchada 「勇気に対する報い」 [yuuki ni taysuru mukuy] (s.s.t.: jasoratga nisbatan mukofot) deb tarjima qilingan. Bu yerda “mukofot” deb qo‘sh tirnoq ichidagi jazo ma’nosini beruvchi so‘z ishlatilgan. Bu esa, ikkala tildagi indektiklik yuqori darajada ekanligini ko‘rsatadi.

5 – bo‘lim, o‘zbekchada “Najot qayerda?”, yaponchada ham so‘zma – so‘z 「救いはいずこに」 [sukuy va izuko‘ni] deb berilgan.

6 – bo‘lim, o‘zbekchada “Zafar va kulfat”, yaponchada ham so‘zma – so‘z 「勝利と苦悩」 [sho‘uri to‘ kuno‘u] deb berilgan.

7 – bo‘lim, o‘zbekchada “Uvol bo‘lgan orzular”, yaponchada 「挫折した夢」 [zasettsu shita yume] (s.s.t.: singan orzu (lar)) deb o‘girilgan. Yapon tilidagi tarjima o‘zbek tilidagi sarlavha semantikasini takrorlashga harakat qilgan.

8 – bo‘lim o‘zbekchada “Hal qiluvchi olishuv”, yaponchada 「運命を決める戦い」 [ummei o‘ kimeru tatakey] (taqdirni hal qiluvchi olishuv) deb aniq o‘girilgan.

9 – bo‘lim o‘zbekchada “Ko‘chki bosgan buloq”, yaponchada 「山崩れで埋まった泉」 [yama kuzurede umatta izumi] (s.s.t: ko‘chkida to‘lgan buloq) deb berilgan. O‘zbek tilida “bosish” yapo tilida esa “to‘lish” fe‘llari ishlatilgan bo‘lsada, bu ikki sarlavha o‘rtasidagi moslik aniq.

1 – qism bo‘lim sarlavhalari haqida muhtasar qilib aytadigan bo‘lsak, asliga moslik darajasi yuqori eknaligi aniqlandi.

Navbat 2 – qism bo‘lim sarlavhalariga. 1 – bo‘lim o‘zbekchada “To‘lgan paymonalar”, yaponchada 「飲み干された人生の杯」 [nomi hosareta jinsey no pay] (s.s.t.: ichib quritilgan inson hayoti qadahi) deb berilgan. O‘zbek tili izohli lug‘atiga ko‘ra “paymona” qadah ma’nosini beradi. “paymonasi to‘lish” esa, sabr – toqati qolmaslik ma’nosini beruvchi ibora. Shunda, “to‘lgan paymonalar” deganda sabr-toqati tamom bo‘lgan insonlar nazarda tutilgan. Yaponchadagi sarlavhada “qadah” leksemasi mavjud bo‘lsada, “sabri tugash” ma’nosini beruvchi mazmun aks etmagan. Ya’ni, ma’lum darajadagi leksik identiklik mavjud bo‘lsada, semantik indetiklik mavjud emas.

2 – bo‘lim o‘zbekchada “Ikki qilich orasida”, yaponchada ham so‘zma-so‘z 「二つの剣の間で」 [futatsu no kenno aydade] deb nomlangan. Vaholanki, yapon tilida tahlila holatini ifodalovchi “qilich” so‘zi ishlatilgan bunday ibora mavjud bo‘lmasada yapon kitobxoni gap nima haqida ketayotganini tushuna oladi.

3 – bo‘lim o‘zbekchada “Toshgan daryo o‘zan izlaydi”, yaponchada ham so‘zma-so‘z 「氾濫した川は水路を探す」 [hanran shita kawa va suyro o sagasu] deb nomlangan.

4 – bo‘lim o‘zbekchada “Yangi qirg‘oqlar”, yaponchada ham so‘zma-so‘z 「新しい岸边」 [atarashii kishibe] deb berilgan.

5 – bo‘lim o‘zbekchada “Taqdir taqozosi”, yaponchada 「運命に従って」 [ummei ni shitagatte] (s.s.t.: taqdirga ergashib) deb berilgan. Ushbu sarlavhalarda ham indetiklik mavjud.

6 – bo‘lim o‘zbekchada “Qayta ko‘z ochgan buloq”, yaponchada ham so‘zma – so‘z 「再び目を開いた泉」 [futatabi me o hirayta izumi] deb berilgan.

7 – bo‘lim o‘zbekchada “Yulduzlar girdobi”, yaponchada ham so‘zma – so‘z 「星の渦」 [ho‘shi no izu] deb berilgan.

1 va 2 – qism sarlavhalariga qarab tarjima aynan o‘zbek tilidan, aniqrog‘i ilk 1979 – yilgi nashrdan amalga oshirilgan degan xulosaga kelamiz.

Umumiy **xulosa** o‘rnida esa quyidagi fikrlarni keltirish mumkin:

1. Sarlavhalarining qiyosiy tahlili metodi yordamida tarjima asari qaysi tildan o‘girilganligi haqida aniq ma’lumotlarga ega bo‘lish va tarjima bilvosita yoki bevosita ekanligini o‘rnatish mumkinligi aniqlandi.

2. “Yulduzli tunlar” romanining nashr etilgan yillariga ko‘ra ikki davrga ajratish mumkin ekanligini o‘rnatildi.

3. Sarlavhalar ketma – ketligi va nomlanishi asosida roman yaponchaga o‘zbek tilidan, 1979 – yilgi nashrdan o‘girilganligi aniqlandi.

4. Tarjimon asliyatga monand ravishda leksik va semantik aniqlikga intilgan.

5. Tarjimon aniqlikka intilgani sabab ba'zi sarlavhalarda kommunikativ maqsad prinsipidan uzoqlashib ketish holatlari ham kuzatildi. Buni 2 – qismdagi 1, 2, 4, 6 – bo'lim sarlavhalarda kuzatish mumkin.

6. ingliz tilidagi tarjimada ham rus tiliga ham o'zbek tiliga moslik holati kuzatildi. Bu esa ingliz tilidagi tarjima “gibrid” degan tahminga yo'l ochib beradi. Bu masalani o'rganish yangi tadqiqot uchun asos bo'lib bera oladi.

Yuqoridagi xulosalar asosida ko'rinib turibdiki, tarjima asarining manbasi haqidagi ma'lumotlar no'malum bo'lsa, tadqiqotni sarlavhalarining qiyosiy tahlilidan boshlash tadqiqot maqsadiga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qodirov P. “Yulduzli tunlar” – tarixiy roman\ G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashiryoti, Toshkent – 1979, 495 b.

2. Qodirov P., “Yulduzli tunlar” roman. G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashiryoti: – T., 1981, 496 b.

3. Qodirov P., “Yulduzli tunlar” roman. O'qituvchi nashiryoti: – T., 1985, 446 b.

4. Qodirov P., “Yulduzli tunlar” roman. Adabiyot va san'at nashiryoti: – T., 1988, 448 b.

5. Qodirov P., “Yulduzli tunlar” roman. O'zbekiston nashiryoti: – T., 1990, 463 b.

6. Qodirov P., “Yulduzli tunlar” roman. O'zbekiston nashiryoti: – T., 1999, 544b.

7. Qodirov P., “Yulduzli tunlar” roman. Sharq nashiryoti: – T., 2004, 544 b.

8. Qodirov P., “Yulduzli tunlar” roman. Sharq nashiryoti: – T., 2013, 544 b.

9. Qodirov P., “Yulduzli tunlar” roman. Yangi asr avlodi nashiryoti: – T., 2015, 668 b.

10. Qodirov P., “Yulduzli tunlar” roman. Navro'z nashiryoti: – T., 2019, 576 b.

11. 山口・久子、「バーブル（上）」第一版. 発行所：有限会社後藤商会 アールズデザイン、2022.

12. 山口・久子、「バーブル（下）」第一版. 発行所：有限会社後藤商会 アールズデザイン、2022.

13. Кадыров П., «Звёздные ночи» роман. перевод с узбекского языка Суровцева Ю., Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма: – T., 1984, 464 c.

14. To'xtasinov I.M., Yo'ldoshev U.R., Hamidov A.A. “Starry nights Babur” – tarjima\ Samarqand davlat universiteti – Samarqand 2019, 444 b.

15. Saidov U.Sh. ““Yulduzli tunlar” romani yapon tilida” – Tarjimashunoslar forumi\ Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti – Toshkent 2023, 195-202 b.

